NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MOLIYAVIY BARQARORLIK VA LIKVIDLIKNI BOSHQARUV HISOBIGA INTEGRATSIYALASH: KO'RSATKICHLAR TIZIMI, PROGNOZLASH VA ERTA OGOHLANTIRISH MEXANIZMI.....	803
Xojiboyev Muxiddin Shodimuxamedovich	
TAYYOR MAHSULOT QADRSIZLANISHI HISOBINI XALQARO STANDARTLARGA MOSLASHTIRISH: ISHCHI SCHYOTLARINI JORIY ETISHNING METODIK ASOSLARI.....	808
Babakulova Matluba Kurbannazarovna	
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И МЕДЕЛИ УПРАВЛЕНИЯ СИСТЕМОЙ РАБОТЫ В МАХАЛЛЯХ.....	812
Kosimjonov Nozimjon Kozimjonovich	
MINTAQALARNING BARQAROR IQTISODIY O'SISHIDA YASHIL IQTISODIYOT KONSEPSIYASINING AHAMIYATI: NAZARIY YONDASHUVLAR TAHLILI	815
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
TURISTIK XIZMAT BOZORINING MOHIYATI, UNING VAZIFALARI VA MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	821
Payazov Murod Maqsudovich, Salimova Mumtozbeqim Jahongir qizi, Shahnoza Xudoyberdiyeva Davlatovna	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA ZAMONAVIY HISOBLASH TEXNOLOGIYALARINING O'RNI	825
Absamatov Asqar Ergashovich	
MINTAQAVIY TURIZM SOHASI UCHUN MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI BO'YICHA TAVSIYALAR	830
Raxmatov Adxam Itolmasovich	
YAROQSIZ AVTOMOBIL SHINALARINI QAYTA ISHLASH USULLARI TAHLILI	839
Maxmonov Uktam Ashurovich	



YAROQSIZ AVTOMOBIL SHINALARINI QAYTA ISHLASH USULLARI TAHLILI

Maxmonov Uktam Ashurovich

Qarshi davlat texnika universiteti dotsenti

Tel: +99894-522-55-64

E-mail: umaxmonov@mail.ru



Annotatsiya. Ma'lumki, dunyo miqyosida yaroqsiz avtomobil shinalarini utilitatsiya qilish va qayta ishlash dolzarb ekologik va iqtisodiy masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishda ko'plab ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda hamda zamonaviy texnologiyalar ishlab chiqilmoqda. Mazkur maqolada yaroqsiz avtomobil shinalarini qayta ishlashning dolzarbligi, ularni utilitatsiya qilish va qayta ishlash texnologiyalari, shuningdek ushbu jarayonlarning ekologik va iqtisodiy ahamiyati yoritilgan.

Kalit so'zlar: shina, rezina granula, rezina chiqindisi, barodestruksiya, mexanik maydalash, fraksiya.

Abstract. It is well known that the utilization and recycling of waste automobile tires are among the urgent environmental and economic problems worldwide. Numerous scientific studies are being conducted in this field, and modern technologies are being developed. This article discusses the relevance of recycling waste automobile tires, the technologies for their utilization and recycling, as well as the environmental and economic significance of these processes.

Keywords: tire, rubber granule, rubber waste, barodestruction, mechanical grinding, fraction.

Аннотация. Известно, что утилизация и переработка непригодных автомобильных шин являются одними из актуальных экологических и экономических проблем мирового масштаба. В данном направлении проводится большое количество научных исследований и разрабатываются современные технологии. В статье рассматриваются актуальность переработки непригодных автомобильных шин, технологии их утилизации и переработки, а также экологическое и экономическое значение данных процессов.

Ключевые слова: шина, резиновая гранула, резиновые отходы, бародеструкция, механическое измельчение, фракция.

KIRISH


Chiqindilar tarkibida yaroqsiz avtomobil shinalari ham salmoqli ulushni tashkil etadi. Dunyo miqyosida har yili taxminan 1,5 milliard dona eski va yaroqsiz avtomobil shinalari chiqindiga aylanadi va ularning umumiy og'irligi qariyb 17 million tonnani tashkil qiladi.

Hududlar kesimida tahlil qilinadigan bo'lsa, yaroqsiz avtomobil shinalari eng ko'p avtomobil parki va iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lgan mamlakatlarda hosil bo'ladi. Jumladan, Xitoyda yiliga 320 million donadan ortiq, AQShda 280–300 million dona, Hindistonda taxminan 112 million dona hamda Yevropa Ittifoqida 300 million donadan ortiq avtomobil shinalari yaroqsiz holga kelib, chiqindi sifatida ajralib chiqadi.

Butun dunyo bo'yicha yaroqsiz shinalarni qayta ishlash darajasi mamlakatlarning ekologik qonunchiligi, texnologik infratuzilmasi va iqtisodiy imkoniyatlariga qarab farqlanadi. Umumiy hisobda, hosil bo'ladigan yaroqsiz shinalarning 70–80 foizi turli usullar orqali qayta ishlanadi yoki utilitatsiya qilinadi. Shinalarni qayta ishlashning eng keng tarqalgan usullaridan biri mexanik maydalash texnologiyasi bo'lib, ushbu usul orqali yaroqsiz shinalarning taxminan 59 foizi qayta ishlanadi. Qayta ishlangan rezina granularlar yo'l qoplamalari, sport maydonchalari, qurilish materiallari ishlab chiqarishda hamda sement pechlarida alternativ yoqilg'i sifatida keng qo'llaniladi.

Dunyo mamlakatlari orasida Yaponiya yaroqsiz shinalarni qayta ishlash bo'yicha yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Ushbu mamlakatda yaroqsiz shinalarning deyarli 90 foizi qayta ishlanadi. Mazkur ko'rsatkich

Yevropa Ittifoqida 76 foizni, AQShda 87 foizni, Rossiyada esa 20 foizni tashkil etadi (1-rasm) [1].
1-rasm. Eskirgan shinalarni turli mamlakatlarda qayta ishlash dinamikasi[®].



MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yaroqsiz avtomobil shinalarini qayta ishlash hamda ulardan ikkilamchi mahsulotlar olish texnologiyalari bo'yicha ko'plab olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan va ushbu yo'nalishdagi tadqiqotlar bugungi kunda ham davom etmoqda.

Jumladan, avstriyalik tadqiqotchilar Erich Markl va Maximilian Lacknerlarning ilmiy ishlarida yaroqsiz avtomobil shinalari tarkibidagi kauchukni devulkanizatsiya qilishning zamonaviy holati va istiqboldagi rivojlanish yo'nalishlari yoritilgan [2]. Ta'kidlash joizki, kauchukni devulkanizatsiya qilish — bu vulkanizatsiya jarayonida hosil bo'lgan bog'lanishlarni, asosan oltingugurt asosidagi bog'lanishlarni buzish orqali materialni qayta ishlashga yaroqli holatga keltirish jarayonidir.

Iroqlik olim Waham Ashaier Laftah hamda malayziyalik tadqiqotchi Wan Aizan Wan Abdul Rahmanlarning ishlarida yaroqsiz shinalarni qayta ishlash usullari batafsil tahlil qilingan. Shuningdek, mazkur tadqiqotlarda innovatsion texnologiyalar, jumladan mikroto'lqinli piroliz usuli va uning texnologik xususiyatlari yoritib berilgan [3].

Rossiyalik tadqiqotchilar D. A. Uporov va A. V. Rumyansevalarning ilmiy ishlarida yaroqsiz shinalarni qayta ishlashning ekologik jihatlariga alohida e'tibor qaratilgan [4]. Tadqiqotchilar qayta ishlash jarayonlarining atrof-muhitga ta'siri hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalarini keng tahlil qilganlar.

Rossiyalik olimlar A. V. Nixayeva va J. S. Oganisyanlarning tadqiqotlarida esa shinalarni utilizatsiya qilish usullarining qiyosiy tahlili amalga oshirilgan. Shuningdek, yaroqsiz shinalarni rezina kukuniga qayta ishlash texnologiyalari hamda undan foydalanish imkoniyatlari o'rganilgan. Mualliflar mazkur turdagi chiqindilarni utilizatsiya qilishning samarali usullarini aniqlash bilan bir qatorda, rezina shinalar, pokrishkalar va kameralar chiqindilarini qayta ishlash sohasida iqtisodiy jihatdan samarali va amaliy mexanizmlarni joriy etishga to'sqinlik qilayotgan ayrim omillarni ham tahlil qilganlar [5].

O'zbekistonlik tadqiqotchilar orasida D. Ya. Yuldoshovning ilmiy ishlarida yaroqsiz shinalar tarkibidagi qimmatbaho komponentlardan iqtisodiy samarali foydalanish yo'llari, turli mamlakatlarda shinalarni qayta ishlash usullari bo'yicha statistik ma'lumotlar hamda energiyatejamkor va ekologik xavfsiz texnologiyalar haqida ma'lumotlar keltirilgan [1]. Muallif tomonidan soddaligi va ixchamligi bilan ajralib turuvchi, ekologik jihatdan xavfsiz texnologik yechimlar tavsiya etilgan.

Tadqiqotchilar F. F. Istablayev va M. P. Dustovalarning ilmiy ishlarida esa pnevmatik shinalarni qayta ishlash va utilizatsiya qilish zarurati asoslab berilgan. Shuningdek, eskirgan shinalarni qayta tiklash va qayta ishlashning zamonaviy usullari tahlil qilingan [6].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot jarayonida yaroqsiz avtomobil shinalarini qayta ishlash va utilizatsiya qilish usullarining texnologik, ekologik hamda iqtisodiy jihatlarini o'rganishga qaratilgan ilmiy yondashuvlardan keng foydalanildi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy tahlil, statistik tahlil, texnologik taqqoslash hamda umumlashtirish usullari qo'llanildi.



Tadqiqotning dastlabki bosqichida yaroqsiz avtomobil shinalarini qayta ishlash bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlari, maqolalari, statistik ma'lumotlari hamda normativ-huquqiy hujjatlari o'rganildi. Xususan, devulkanizatsiya, mexanik maydalash, piroliz, kriogen maydalash va boshqa zamonaviy texnologiyalarning texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari qiyosiy tahlil qilindi.

Shuningdek, dunyoning turli mamlakatlarida yaroqsiz avtomobil shinalarini qayta ishlash darajasi, utilitatsiya qilish amaliyoti hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha mavjud tajribalar statistik va qiyosiy tahlil asosida baholandi. O'zbekiston sharoitida hosil bo'layotgan rezina chiqindilarining hajmi, ularni qayta ishlash darajasi va mavjud muammolar ilmiy manbalar asosida tahlil qilindi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirgi vaqtda dunyo miqyosida eskirgan va yaroqsiz holga kelgan avtomobil shinalari hamda rezina chiqindilarini qayta ishlash va utilitatsiya qilishning bir qator zamonaviy texnologiyalari ishlab chiqilgan bo'lib, ular amaliyotda keng qo'llanilmoqda va muntazam ravishda takomillashtirib borilmoqda. Ushbu texnologiyalar butun shinalardan turli maqsadlarda foydalanish, shinalar va rezina chiqindilaridan energiya olish (yoqish, sement sanoatida yoqilg'i sifatida qo'llash), shina va rezina chiqindilarini maydalash orqali turli o'lchamdagi rezina granulari hamda rezina kukunlari olish, shuningdek rezina chiqindilari asosida turli materiallar ishlab chiqarishni nazarda tutadi.

Mamlakatimizda eskirgan va yaroqsiz holga kelgan avtomobil shinalari hamda rezina mahsulotlarini qayta ishlash va ulardan takroriy foydalanish muammosini samarali hal qilish uchun ularni hisobga olish, yig'ish, saqlash va qayta ishlash korxonalariga topshirish tartibini belgilovchi chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish hamda amaliyotga joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, eskirgan shinalarni qayta tiklash va qayta ishlash hajmini oshirishni rag'batlantiruvchi me'yoriy-huquqiy mexanizmlarni yanada takomillashtirish maqsadga muvofiqdir.

Bundan tashqari, qayta ishlash natijasida olinadigan ikkilamchi xomashyodan tayyorlanadigan mahsulotlar va materiallar bozorini shakllantirish ham dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki shinalarni qayta ishlash jarayonida hosil bo'ladigan maydalangan rezina granulari (kroshka) fraksiyasiga qarab turli sohalarda qo'llaniladi. Jumladan, ular yo'l qoplamalari, sport maydonchalari, qurilish materiallari, vibratsiyani kamaytiruvchi qoplamalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishda keng foydalaniladi.

Tarkibiga ko'ra avtomobil shinalari ikki asosiy guruhga bo'linadi:


metall kordli shinalar (rezina — 80%, tekstil kord — 6%, metall kord — 10%, sim — 4%);

matoli kordli shinalar (rezina — 87%, tekstil kord — 10%, sim — 3%) [7].

Mazkur tarkibiy tuzilma shinalarni qayta ishlash texnologiyasini tanlashda muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Chunki metall va tekstil komponentlarini ajratib olish texnologik jarayon samaradorligini oshirish bilan birga, ikkilamchi xomashyo sifatini ham yaxshilaydi.

Quyidagi 2-rasmda avtomobil shinalarining tarkibiy tuzilishi tasvirlangan (2-rasm).

2-rasm. Shinaning tuzilishi².



1-protector; 2-yelka qismi; 3-ramka; 4-yon qism; 5-to'sar va yostiq qatlami;
6-yelka sohasiga qo'shimcha kiritish (yashil); 7-yon halqa; 8-yon qismlar.

Ishlatilgan shinalar tarkibidagi asosiy materiallarning aksariyati o'zining dastlabki tuzilishi va fizik-kimyoviy xossalariga yaqin holatini saqlab qoladi. Shinalarning asosiy konstrukcion materiali hisoblangan

vulkanizatsiyalangan rezina juda kichik strukturaviy o'zgarishlarga uchraydi. Bu holat ma'lum darajada rezina tarkibidagi qarishga qarshi inhibitorlarning mavjudligi bilan izohlanadi. Mazkur moddalar oksidlanish jarayonini sekinlashtiradi hamda materialning eskirishiga qarshi himoya vazifasini bajaradi.

Shinalar tarkibidagi metall komponentlar esa mahsulotdan foydalanish jarayonida deyarli o'z xususiyatlarini saqlab qoladi.

Eskirgan shinalarni kompleks qayta ishlash va utilizatsiya qilishning asosiy yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

rezinani maydalash orqali rezina granulari ishlab chiqarish;

regenerat ishlab chiqarish, ya'ni eskirgan rezina buyumlari va avtomobil shinalarini qayta ishlash orqali rezinani qayta tiklash;

termik usullar (shinalarni maxsus pechlarda yoqish orqali issiqlik energiyasi olish, kislorodsiz yoki kam kislorodli muhitda yuqori haroratda parchalanish jarayonini amalga oshirish, yonuvchi gaz olish, shuningdek issiqlik elektr stansiyalari va sanoat qurilmalarida alternativ yoqilg'i sifatida foydalanish);

yangi protektor qoplash, ya'ni eskirgan avtomobil shinasining yeyilgan tashqi yugurish qismini (protektorini) yangisi bilan almashtirish;

mis va alyuminiyni rafinatsiya qilish qurilmalarida, shuningdek cho'yan eritish pechlarida qaytaruvchi hamda uglerodlashtiruvchi sifatida foydalanish;

dengiz va daryo qirg'oqlari qiyaliklarini mustahkamlash, sun'iy riflar yaratish, suzuvchi to'lqin qaytargichlar, avtomobil yo'llarida zarbaga qarshi to'siqlar va boshqa maqsadlarda qo'llash.

Mazkur yo'nalishlar orasida eng samarali va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq usullar dastlabki uchta yo'nalish hisoblanadi. Ular fizik usullar (rezina granularini olish) hamda kimyoviy usullar (regenerat ishlab chiqarish va termik qayta ishlash)ni o'z ichiga oladi.

Eskirgan shinalarni qayta ishlashning klassik texnologiyasi bir necha bosqichlardan iborat. Dastlab yirik maydalash amalga oshiriladi, bunda shinalarning simli yon qismlari kesib olinadi va qolgan qismi 50–250 mm o'lchamdagi bo'laklarga ajratiladi. Keyingi bosqichda ushbu bo'laklar yanada mayda fraksiyalargacha maydalab chiqiladi.

Hosil bo'lgan fraksiyalar ikki qavatli vibratsion elaklar bilan jihozlangan saralash tizimiga uzatiladi. Yuqori elak katakchalari odatda 3–5 mm, pastki elak katakchalari esa 1 mm o'lchamda bo'ladi. Yuqori elakda tolali mato kord qoldiriladi, pastga tushgan rezina maydalari esa magnit separator orqali o'tkaziladi. Ushbu jarayonda rezina tarkibidan metall sim bo'laklari ajratib olinadi (metall kordli shinalarda) [8].

Rezina tarkibining kimyoviy tuzilishini o'zgartirish asosida amalga oshiriladigan qayta ishlash jarayonlarida hosil bo'ladigan kauchuk komponenti o'zining dastlabki xususiyatlarini to'liq saqlab qola olmaydi. Kauchuk parchalanishi natijasida olinadigan mahsulotlar hamda texnik uglerodning iqtisodiy qiymati, rezinani saqlab qolish va uni ishlab chiqarish jarayoniga qayta jalb qilish orqali olinadigan mahsulotlarga nisbatan pastroq bo'ladi [8].

Yaroqsiz avtomobil shinalarini qayta ishlashning eng keng tarqalgan usullaridan biri mexanik maydalash texnologiyasi hisoblanadi. Ushbu usul polimer materiallarning tuzilishi va asosiy xossalarini saqlab qolish imkonini berishi bilan ajralib turadi.

Yaroqsiz avtomobil shinalarini qayta ishlash jarayonida bir qator zamonaviy texnologiyalar qo'llaniladi. Ushbu usullar texnologik xususiyatlari, energiya sarfi, ekologik xavfsizlik darajasi hamda olinadigan mahsulot sifati bilan bir-biridan farq qiladi.

Barodestruksiya usuli — materialni yirik qismlarga maydalash va korddan rezinani "siqib chiqarish" usuli hisoblanadi. Bunda yakuniy mahsulot sifatida diametri 0,8 mm bo'lgan maydalangan rezina hamda alohida utilizatsiya qilinishi lozim bo'lgan kord olinadi. Ushbu texnologiyada dastlab shinalar yirik bo'laklarga ajratiladi, keyinchalik ular maxsus matritsada puanson yordamida siqiladi. Natijada rezina oqim holatiga kelib, metall korddan ajratiladi. Bundan tashqari, usul yuqori energiya sarfini talab qiladi.

Ozon bilan ishlov berish usulida yakuniy mahsulot sifatida diametri 0,1–0,2 mm bo'lgan maydalangan rezina olinadi. Ushbu texnologiya "ozon pichog'i" yordamida maydalash prinsipiga asoslangan bo'lib, eskirgan shina maxsus kameraga joylashtiriladi, ozon ta'siriga uchratiladi va keyinchalik mexanik maydalash amalga oshiriladi. Mazkur usulda ham olingan mahsulot rezinaning dastlabki xossalarini to'liq saqlab qolmaydi. Shu bilan birga, texnologiyada yuqori konsentratsiyadagi ozondan foydalanilishi ekologik xavfsizlik masalalariga alohida e'tibor qaratishni talab qiladi.

Mexanik maydalash usuli yaroqsiz shinalarni qayta ishlashning eng keng tarqalgan texnologiyalaridan biri hisoblanadi. Ushbu usulda shinalar maxsus maydalash uskunalari (shredder va drobilkalar) yordamida mayda bo'laklarga ajratiladi. Texnologiyaning asosiy kamchiliklaridan biri — texnologik liniyalarning "sof" ish vaqti koeffitsienti nisbatan past bo'lishidir (50–60% dan oshmaydi). Bundan tashqari, kesuvchi asboblarni almashtirish va uskunalarni ta'mirlash bilan bog'liq to'xtab qolishlar ham ko'p kuzatiladi. Ayniqsa, metall kordli shinalarni maydalashda uskunalarning tez yeyilishi, elektr energiyasi sarfining yuqoriligi hamda ishlab chiqarish



tannarxining ortishi kuzatiladi [7].

Yuqori harorat bilan ishlov berish usuli amalda shinalarni yoqilg'iga aylantirish jarayoni hisoblanadi. Bunda rezina yuqori harorat ta'sirida tarkibiy qismlarga parchalanadi va natijada yoqilg'i sifatida foydalanish mumkin bo'lgan gaz hosil bo'ladi.

Aylanma portlatish usuli ham shinalarni qayta ishlash texnologiyalaridan biri hisoblanib, maxsus texnologik jarayon asosida amalga oshiriladi.

Past haroratlarda ishlov berish (kriogen usul) texnologiyasida rezina -60°C dan -90°C gacha bo'lgan haroratda maydalanadi. Ushbu jarayon shina kompozitini rezina, metall va tekstil komponentlariga samarali ajratish imkonini beradi. Biroq rezinani sovutish uchun qimmat azot yoki sovuq havoni ishlab chiqarish va tozalash tizimlari, shuningdek maxsus sovutish kameralaridan foydalanish talab etiladi. Natijada uskunaning qiymati, ekspluatatsion xarajatlar hamda tayyor mahsulot tannarxi sezilarli darajada oshadi.

Yaroqsiz shinalarni qayta ishlash natijasida olinadigan rezina granulari ularning fraksiyasiga qarab turli sohalarda qo'llaniladi.

Eng mayda fraksiya (0,2–0,45 mm) avtomobil shinalari ishlab chiqarishda hamda poyabzal tagcharamasi tayyorlashda ishlatiladi. Zamonaviy texnologiyalar maydalangan rezinaning 80 foizigacha qayta qo'llash imkonini beradi.

0,6 mm gacha bo'lgan fraksiyalar shlanglar, tormoz kolodkalari, plastmassa buyumlar, yumshoq rulonli tom yopma materiallari, gidroizolyatsion mastikalar, transportyor lentalar va elektr kabellari izolyatsiyasini ishlab chiqarishda, shuningdek neft va neft mahsulotlarini yig'ishda sorbent material sifatida qo'llaniladi.

1 mm gacha bo'lgan yirikroq zarrachalar asfalt tarkibiga qo'shiladi, shuningdek velosiped va yugurish yo'laklari, trotuarlar, bolalar hamda sport maydonchalari, metro zinapoyalari, bekatlar va piyodalar o'tish joylari uchun yumshoq va sirpanmaydigan rezina qoplamalar tayyorlashda foydalaniladi. Rezina maydalari asfalt tarkibiga qo'shilganda yo'l qoplamasida yoriqlar hosil bo'lishining oldi olinadi, shuningdek transport harakati natijasida yuzaga keladigan shovqin darajasi kamayadi.

2–5 mm fraksiyadagi maydalangan rezina esa sun'iy qoplamali futbol, tennis va boshqa sport maydonlarini to'ldirishda, shuningdek sport anjomlari ishlab chiqarishda keng qo'llaniladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, hozirgi paytda yaroqsiz avtomobil shinalari va turli rezina mahsulotlarini qayta ishlash natijasida olinadigan rezina materiallardan turli kompozit materiallar ishlab chiqarishda xomashyo sifatida foydalanish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari keng olib borilmoqda.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yaroqsiz avtomobil shinalarini utilizatsiya qilish va ularni qayta ishlashga yo'naltirish masalasi texnik, tashkiliy hamda iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompleks vazifalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda katta hajmda hosil bo'layotgan yaroqsiz avtomobil shinalarini qayta ishlash masalasiga alohida e'tibor qaratish, ushbu yo'nalishda ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada kengaytirish hamda ularni moliyaviy va texnologik jihatdan qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki yaroqsiz shinalarni qayta ishlashga yo'naltirish ekologik xavfsizlikni ta'minlash, chiqindilar hajmini kamaytirish, ikkilamchi xomashyodan samarali foydalanish hamda qo'shimcha iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini beradi.

Shuningdek, qayta ishlash natijasida olinadigan rezina granulari va boshqa ikkilamchi mahsulotlardan qurilish, yo'lsozlik, sport infratuzilmasi, sanoat va boshqa sohalarda keng foydalanish mumkin. Bu esa resurslardan oqilona foydalanish bilan birga, yangi ishlab chiqarish yo'nalishlarini rivojlantirish va qo'shimcha ish o'rinlari yaratishga ham xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan, yaroqsiz avtomobil shinalarini qayta ishlash bo'yicha zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, qayta ishlash korxonalarini faoliyatini kengaytirish hamda ilmiy asoslangan innovatsion ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Yuldoshov, D. Ya. (2016). *Экономические перспективы переработки изношенных шин*. "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali, №1, yanvar–fevral, 1–6-betlar.
2. Markl, E., & Lackner, M. (2020). *Devulcanization Technologies for Recycling of Tire-Derived Rubber: A Review*. *Materials*, 13(1246). DOI:10.3390/ma13051246. Manba: www.mdpi.com/journal/materials
3. Laftah, W. A., & Wan Abdul Rahman, W. A. (2025). *A Comprehensive Review of Tire Recycling Technologies and Applications*. *Materials Advances*, 6, 4992–5010. Manba: https://www.researchgate.net/publication/393018019_A_comprehensive_review_of_tire_recycling_technologies_and_applications
4. Uporov, D. A., & Romyanseva, A. V. *Экологические аспекты переработки автомобильных шин*. Manba: <https://>



- elar.ufrj.br/bitstream/10995/74200/1/sueb_2018_038.pdf
5. Nixayeva, A. V., & Oganisyan, J. S. (2017). *К вопросу об утилизации отработанных автомобильных шин*. Manba: <https://s.eduherald.ru/pdf/2017/6/17979.pdf> (manbaga 14.04.2026-yilda murojaat qilingan).
 6. Istablayev, F. F., & Dustova, M. P. (2021). *Актуальность утилизации автомобильных шин*. "Эколого-экономические и технологические аспекты устойчивого развития Республики Беларусь и Российской Федерации" mavzusidagi III xalqaro ilmiy-texnik konferensiya materiallari to'plami. Minsk: BGTU, 305–309-betlar.
 7. Raskatov, V. M., Chuenkov, V. S., Bessonova, N. F., & Veys, D. A. (1980). *Машиностроительные материалы: Краткий справочник*. 3-nashr, qayta ishlangan va to'ldirilgan. Moskva: Mashinostroenie, 511-bet.
 8. Palgunov, P. P., & Sumarokov, M. V. (1990). *Утилизация промышленных отходов*. Moskva: Stroyizdat, 352-bet.

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100